



## INTERNATIONAL COOPERATION RELATIONS OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF CUSTOMS

*Gulhida Olimjonova*

*free explorer*

*Karshi State University*

*Karshi, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Republic of Uzbekistan, customs, State Customs Committee, international cooperation, contract.

**Received:** 10.09.24

**Accepted:** 12.09.24

**Published:** 14.09.24

**Abstract:** As the Republic of Uzbekistan develops towards development, in turn, customs policy in the market economy, in particular international cooperation relations in this area, is important.

This article provides information on international cooperation in the field of customs and customs policy of the Republic of Uzbekistan during the years of independence.

## O‘ZBEKISTONNING BOJXONA SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI

*Gulhida Olimjonova*

*erkin tadqiqotchi*

*Qarshi davlat universiteti*

*Qarshi, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Respublikasi, bojxona, Davlat bojxona qo‘mitasi, xalqaro hamkorlik, shartnoma.

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot sari rivojlanib borar ekan, o‘z navbatida bozor iqtisodiyotida bojxona siyosati, xususan ushbu sohada xalqaro hamkorlik aloqalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining bojxona va bojxona siyosati sohasida xalqaro hamkorlik aloqalari haqida ma’lumot beriladi.

## МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА

*Гулхиди Олимжонова*

*свободный исследователь*

*Каршинский государственный университет*

*Карши, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, таможня, Государственный таможенный комитет, международное сотрудничество, контракт.

**Аннотация:** По мере развития Республики Узбекистан таможенная политика в рыночной экономике, в частности, международное сотрудничество, приобретает все большее значение.

В данной статье представлена информация о международном сотрудничестве в сфере таможенного дела и таможенной политики Республики Узбекистан в годы независимости.

---

**KIRISH**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinib, xalqaro huquqning teng huquqli sub'yektiga aylandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasida belgilanganidek, "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi" [1].

Bu borada bojxona sohasida 123 ta normativ-huquqiy hujjatlar imzolangan, shundan 32 tasi hukumatlararo va 91 tasi xorijiy idoralararo shartnomalardir [2].

**ASOSIY QISM**

O'zbekiston 1992 yil 28 iyulda Jahon bojxona tashkilotining faol a'zosiga aylandi va muntazam ravishda tashkilotning yillik anjumanlarida mamlakatimiz vakillari samarali ishtirok etib kelmoqdalar. Dunyoning 179 davlatini o'zida birlashtirgan mazkur tashkilot dunyo hhamjamiyati tomonidan "Halqaro bojxona tajribasi markazi" deb e'tirof etiladi. Bojxona xizmatini jahon standartlariga yaqinlashtirish maqsadida mamlakatimiz xalqaro bojxona amaliyotlari bilan bog'liq 15 dan ortiq xalqaro konvensiyalarga a'zo bo'lgan [3].

Mamlakatimiz Jahon bojxona tashkiloti ishida faol ishtirok etyapti. O'zbekistonning 1995 yilda Siyosiy komissiya a'zosi etib, 2001 yilda esa Moliya qo'mitasi tarkibiga saylanishi ham mamlakatimiz xalqaro bojxona hamjamiyati tomonidan munosib e'tirof etilganidan dalolat beradi. Ushbu ko'p yillik hamkorlik respublikamiz huquqiy bazasini xalqaro konvensiyalar va bojxona ishining boshqa xalqaro me'yorlariga yaqinlashtirishga imkon berdi. Bojxona sohasidagi qonunchiligimiz umumqabul qilingan xalqaro standartlar, me'yorlar va amaliyot bilan birxillashtirish hamda uyg'unlashtirish yo'nalishida rivojlanmoqda, bu esa respublika bojxona siyosati yutuqlarini mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim dalili deb e'tirof etishni ta'minlaydi.

Bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida xalqaro konvensiyaning (Kioto konvensiyasi) 1999 yil iyunda ma'qullangan yangi versiyasi JBTning eng kata va muhim yutug'iga aylandi. Kengashning 2005 yildagi sessiyalarida Xavfsizlik va jahonda savdoni yengillashtirishning hadli standartlari qabul qilinishi ham xalqaro bojxona hamjamiyati uchun muhim voqea bo'ldi.

Davlat bojxona qo'mitasining xalqaro bojxona hamkorligi faqatgina Jahon bojxona tashkiloti bilan kifoyalanmaydi. Respublikamiz bojxona organlari boshqa yirik xalqaro tashkilotlarning ham bojxona ishiga doir dastur va loyihalarida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik boshqarmasining giyohvand moddalarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurashish bo'yicha tajriba almashishga doir xalqaro tadbirlarida, Shanxay hamkorlik tashkilotining Bojxona hamkorligi bo'yicha maxsus ishchi guruhi yig'ilishlarida, MDH Bojxona xizmatlari rahbarlarining kengashi majlislari, Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi dasturi, Yaponiyaning JICA va Koreyaning KOIKA xalqaro hamkorlik bo'yicha tashkilotlari o'quv kurslarida faol ishtirok etib kelinmoqda.

Istiqlol yillarida MDHga a'zo davlatlarning bojxona xizmatlari o'rtasida bojxona hamkorligining huquqiy asoslari va yo'nalishlarini o'zida qamrab olgan 100 dan ortiq hukumatlararo va idoralararo Bitimlar imzolandi. So'nggi 20 yil mobaynida esa mazkur Bitimlar imzolangan davlatlar vakillari bilan 100 dan ortiq ikki tomonlama ishchi uchrashuvlar tashkil etildi. Mazkur oliy darajada o'tkazilgan uchrashuvlarning samarasi o'laroq Toshkentda o'tkazilgan bir qator tadbirlarni misol keltirishimiz mumkin:

- 1997 yilda Jahon bojxona tashkiloti Bosh kotibi Jeyms Shaver ishtirokida Markaziy Osiyo davlatlari bojxona xizmatlari rahbarlari bilan o'tkazilgan mintaqaviy uchrashuv;

- 2002 yilda Jahon bojxona tashkiloti Bosh kotibi Mishel Dane ishtirokida "Buyuk ipak yo'li davlatlarida giyohvand moddalarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashish" mavzusida xalqaro konferensiya (konferensiya yakunida Toshkent Deklaratsiyasi imzolangan);

- 2004 yilda Yaponiya hukumati ko'magida bojxona prosedurasini soddalashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha qayta ishlab to'ldirilgan Xalqaro konvensiyani tanishtirish maqsadida tashkil etilgan mintaqaviy seminar (Kioto konvensiyasi) ;

- 2008 yilda Milliy kinologiya markaziga Jahon bojxona tashkilotining mintaqaviy o'quv markazi maqomini berish bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi va Jahon bojxona tashkiloti o'rtasida Anglashuv memorandumini imzolanishi.

- 2010 yil 3 may kuni Jahon Bojxona tashkiloti Bosh kotibi Kunio Mikuriyaning Toshkentda bo'lib o'tadigan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) boshqaruvchilar Kengashining 43-yillik majlisi doirasida O'zbekiston

Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasiga rasmiy tashrifi. Tashrif chog‘ida Janob Mikuriya Jahon bojxona tashkilotining yaqin yillarga mo‘ljallangan strategik maqsad va vazifalari to‘g‘risida Davlat bojxona qo‘mitasi shaxsiy tarkibi oldida chiqish qilib, bojxona xizmati - qonuniy savdo aylanmasini tashkil etish, iqtisodiy taraqqiyot va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynashini alohida ta‘kidlab o‘tdi [4].

Oliy darajadagi mehmonlarning mamlakatimizga tashrifi mazkur xalqaro tashkilot bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro mustahkam hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilganligining yaqqol dalilidir.

O‘zbekiston bojxona organlari tomonidan halqaro hamkorlik yo‘nalishida olib borilayotgan faol va muvaffaqiyatli chora-tadbirlar jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholab kelinmoqda.

Bojxona sohasidagi xalqaro shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning davlatlar o‘rtasidagi bojxona munosabatlarini muvofiqlashtirish, tovarlarni eksport-import qilishda bojxona bojlari va boshqa yig‘imlarni to‘lashda imtiyoz va yengilliklar belgilash, o‘z navbatida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, muomaladan chiqarilgan tovarlarning bojxona chegaralari olib o‘tilishining oldini olish sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalariga qaratilganini ta‘kidlash mumkin.

Xuddi shu maqsadda 2011 yil 18 oktyabrdagi Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi Shartnoma O‘zbekiston Respublikasidan tashqari boshqa Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Moldova va Ukraina davlatlari o‘rtasida imzolangan bo‘lib, mazkur shartnoma davlatlar o‘rtasida tovarlar eksporti va importida bojxona bojlari va boshqa yig‘imlarni yig‘ishda ulardan ozod etish yoki yengillik berishni ko‘zda tutadi.

2013 yil 31 mayda Minskda Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi Shartnomani uning Tomonlari va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida qo‘llash haqidagi Bayonnoma imzolangan bo‘lib, mazkur Bayonnoma O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrdagi O‘RQ-362-son Qonuni [5] bilan ratifikatsiya qilingan va O‘zbekiston Respublikasi Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi Shartnomaning tegishli moddalariga qo‘shilgan.

Mazkur Bayonnomaga 1-ilovaning 1-bandida Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Ukraina O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan kelib chiqqan tovarlarning importiga nisbatan bojxona bojlarini qo‘llamasligi, o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining sanab o‘tilgan davlatlar bojxona hududidan kelib chiqqan tovarlarning importiga nisbatan bojxona bojlarini qo‘llamasligi belgilangan.

2017 yil 11 iyul kuni O‘zbekiston-Qozog‘iston Davlat chegarasida joylashgan “Oq oltin – Syelinnby” va “Malik – Sirdaryo” avtomobil o‘tkazish punktlarining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ma'lumki, joriy yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtasida O'zbekiston Qozog'iston davlat chegarasidan o'tkazish punktlari to'g'risidagi 2006 yil 4 sentyabrda imzolangan Bitimga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Bayonnoma imzolangan edi.

Qisqa fursat ichida ushbu Bayonnomaning amaliyotga kiritilishi yuzasidan ichki davlat kelishuvlari amalga oshirildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida" 2017 yil 2 mayda PQ-2945-son qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-Qozog'iston Davlat chegarasida "Oq oltin" va "Malik" avtomobil o'tkazish punktlarini ochish to'g'risida" 2017 yil 26 apreldagi PQ-2931-son qaroriga asosan mazkur o'tkazish punktlari orqali faqat yengil avtotransport vositalari harakatlanadi va bu punktlar orqali yuk va tovarlarni tijorat maqsadida olib o'tilishini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'z navbatida bojxona organlari tomonidan "Oq oltin" va "Malik" chegara o'tkazish punktlarining samarali va qonuniy faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida, barcha zarur choralar ko'ridi. Xususan, bojxona nazoratini ta'minlash hamda xodimlarning xizmat olib borishlari va dam olishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilib, bojxona postlari bojxona nazoratining eng so'nggi texnik vositalari bilan jihozlandi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, avtomobil o'tkazish punktlarida bojxona nazorati soddalashtirilgan tartibda, yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi to'ldirilmasdan, ro'yxatga qo'ymasdan va transport vositalarini bojxona ko'rigidan o'tkazmasdan, faqatgina harakatlanayotgan transport vositalarini majburiy ravishda vizual ko'zdan kechirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'lning ochilishi o'zaro birodar o'zbek va qozoq xalqlarini yanada bir-biriga bog'lovchi, mamlakatlarimiz o'rtasida do'stlik va hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi rishta bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. 3-bet.
2. Tangriyev H. Iqtisodiy xavfsizlik va xalqaro hamkorlik chorrahasida. "Soliq va bojxona xabarlari" gazetasi / 2017 yil / № 4
3. <http://www.customs.uz/uz/events/about/15>
4. <http://www.customs.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-son, 687-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2017 y.